IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
MAXSUS SON . VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

SHAXSIY KOMPYUTER ARXITEKTURASI VA OFIS JIHOZLARIGA TEXNIK XIZMAR KO‘RSATISH FANIDAN KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI MASALALARNING AHAMIYATI

Muallif	**Isroilova Shohida Islamovna**
O’qish yoki ish joyi	**Ohangaron shahar kasb hunar maktabi Ishlab chiqarish ta'lim ustasi**
Qabul qilindi	**26.09.2023**
Nashr qilindi	**26.09.2023**

Annotatsiya

Maqolada bugungi kunda O‘zbekistonda ta’lim sohasini muhim innovatsion o‘zgarishlar maydoniga aylangani, mamlakatimizda ta’lim sifati yuqori darajaga ko‘tarilayotganligi haqida so‘z yuritilgan. Agar bunday o‘zgarishlarning asosida ta’lim jarayonida nostandart yondashuvlar keng qo‘llanilsa, ta’limning barcha darajalarida uning fundamental, uzluksizligi va uzviyligini saqlash orqali muammoli ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etish dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lishi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar

kreativ faoliyat, ijodkorlik, informatika, muammoli ta’lim, muammoli masalalar.

Har qanday boshqa texnologiya kabi muammoli o‘qitish texnologiyasi talabaning kognitiv faoliyatini tashkil etish va o‘quv jarayonini nazorat qilishdan iborat bo‘lgan bikomponentli hamda mazkur texnologiyaga asoslangan ko‘p komponentli innovatsiya oliy ta’limga xos bo‘lib, quyidagicha shakllantiriladi: “ta’lim maqsadlari, ta’lim mazmuni, motivatsiya va o‘qitish vositalari, o‘qituvchi va talabalar, yakuniy ta’lim natijalari”.

Bugungi kunda OTMlarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayoni bir qator ob’ektiv sabablarga ko‘ra sust bormoqda. Masalan, ko‘p yillar davomida talabalarni o‘qitishning an’anaviy usullaridan foydalangan o‘qituvchilar hech narsani o‘zgartirishni, o‘rganishni, ishlab chiqishni xohlamaydilar, odatiy bo‘lmagan pedagogik qarorlarni qabul qilishni rad etadilar, chunki qobiliyatlaridagi noaniqlik, o‘z-o‘zini anglashning pastligi yangi bilim va pedagogik mahoratni egallashga salbiy ta’sir qiladi.

Materiallar, metodlar, tahlil va muhokama. Muammoli ta’lim texnologiyasining muhim jihatlaridan biri-bu talabalarning kognitiv faoliyatini boshqarish. V.P.Simonov o‘quv jarayonining boshqaruvchisi sifatida o‘qituvchi faoliyatida 4 ta funksiyani belgilaydi: maqsadni belgilash yoki faoliyatni loyihalash, muloqot o‘rnatish, faoliyatni mazmunli tashkil etish va faoliyatni tahlil qilish orqali samarali natijaga erishish. Uning fikriga ko‘ra, pedagogik boshqaruv doimiy rivojlanayotgan jarayon, faol, dinamik tizim sifatida qaraladi, u nafaqat boshqariladigan, balki o‘z-o‘zini boshqarish, o‘zini o‘zi takomillashtirish, o‘z-o‘zini boshqarish ta’sirida va ishtirokida rivojlanish... Oliy ta’lim muassasasida talabaning faoliyati kelajakdagi kasbiy faoliyat asoslarini egallashga qaratilgan bo‘lib, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zini takomillashtirish ko‘nikmalarini olish bilan bog‘liq.

Talabalarning kognitiv faoliyati mohiyati ilmiy-tadqiqot institutida ilmiy xodimlarning ishiga o‘xshash bo‘lishi kerak bo‘lgan kasbiy bilim, mahorat va ko‘nikmalarning matematik jihatdan o‘zlashtirishga asoslanadi: “Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonining samaradorligi talabalar faoliyatida tadqiqot darajasidan sezilarli darajada ustunlik mavjud bo‘lgandagina kuchayadi va o‘qitish metodlari talabalarni ilmiy bilimlar bilan qurollantirib, izlanish qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi”.

Intellektual ravishda talabaning kognitiv faoliyati maqsadli bo‘lishi, o‘qituvchi tomonidan rejalashtirilishi, ro‘yobga chiqarish jarayonini muvofiqlashtirishi va tegishli nazoratni amalga oshirishi kerak. O‘qituvchi tomonidan kognitiv faoliyatni boshqarish juda mas’uliyatli va mashaqqatli vazifa, chunki bu birinchi navbatda talaba tomonidan bilimlarni o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi va o‘qituvchidan yuqori ilmiy professionallik talab etiladi. O‘qitish muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘rganish motivatsiyasiga, uning talaba uchun shaxsiy ma’nosiga bog‘liq. Shaxsga yo‘naltirilgan didaktika o‘zi bergan savolga javob olishga qiziqqan talabani individual izlashni ta’minlashga asoslanadi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar bu fikrga e’tiroz bildirishlari va informatika maxsus tashkil etilgan motivatsiya jarayonini talab qilmaydigan samarador fan ekanligini ta’kilaydilar. Informatika fanini o‘rganishga qiziqish, albatta, birinchi navbatda, kompyuterga qiziqishdir. U sirliligi, kuchi va yangi imkoniyatlarni namoyish etishi bilan talabalarni hayratda qoldiradi. Informatika shaxsga yordamchi ko‘ngilochar hordiq vositasi bo‘lishi bilan birga va butun dunyo bilan bog‘lashga qodir. Umuman olganda, har qanday auditoriya informatika darslariga boshqa darslarga nisbatan ko‘proq qiziqish bilan boradi va bu hozircha kompyuterning o‘zi fanni o‘rganishga turtki bo‘lganligi bilan bog‘liq. Lekin, birinchidan, kompyuterlarning inson hayotining ko‘plab sohalariga kirib borishi vaqt o‘tishi bilan bu qiziqishni susaytiradi, vaqt o‘tishi bilan ko‘pchilik uchun kompyuter haqiqatan ham maishiy texnikaga aylanadi va o‘zining sirliligini va motivatsion kuchini yo‘qotadi. Talabalar kompyuter faniga fan sifatida emas, balki kompyuterga o‘yinchoq sifatida qaray boshlaydilar. Ammo informatika fanining predmeti faqatgina kompyuterning o‘zi emas, balki u keng nazariy asos, konseptual apparat, matematik mantiq, algoritmlar nazariyasi va boshqa ko‘p bilimlarni o‘z ichiga oladi, va bu, tabiiyki, talabalar uchun quruq va qiziq bo‘lmagan bilimlar bo‘lib tuyuladi.

Bu jarayonda o‘qituvchi uchun ustuvor vazifa sifatida ikkita vazifani belgilash lozim: ilmiy tushunchalar va faoliyat usullarini o‘zlashtirish jarayonida o‘rganishning barqaror motivlarini shakllantirish va aqliy (shu jumladan kreativ) qobiliyatlarni rivojlantirish. «Nimani o‘rgatish kerak?» degan savolga javob tariqasida davlat tayyor vositalarni taklif etadi, bularning ammasi DTSda berilgan. Ammo zamonaviy davrda ta’lim paradigmasida o‘zgarishlar ro‘y berayotganligi sababli, bilim paradigmasidan shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga o‘tish, bu ta’lim mazmunini uning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini kuchaytirish yo‘nalishi bo‘yicha o‘zgartirishni nazarda tutadi.

Informatika fanida o‘qituvchi boshqa fanlardan farqli o‘laroq, o‘quv rejasining barcha fanlari - matematika, fizika, biologiya, ijtimoiy fanlar bilan integratsiyalashgan holda umumiy mazmunni amalga oshirish uchun eng katta imkoniyatga ega. Haddan tashqari mavzuli materiallardan foydalanish kontentni tegishli, foydali va shaxsan ahamiyatli qilish imkonini beradi. Shunday qilib, didaktik tarkibni malakali tanlash bolaning aqliy jarayonlarini rivojlantirishga va kognitiv qiziqishni shakllantirishga yordam beradi.

Fanni mazmunli va qiziqarli bo‘lishi uchun o‘qitish tarkibi quyidagicha bo‘lishi kerak:

•hayratlantiruvchi

•muammoli

•taxminlarning mavjudligi

•rad etish imkoni mavjudligi

•fikrlarning bir-biriga mos kelmasligi

•noaniqlik

Krevativ faoliyatga asoslangan muammoli materialning mazmunini qurishda yuqoridagi elementlarni mashg‘ulot jarayoniga kiritish zarur.

Agar “jarayon maqsadli va bashoratli tavsifga ega bo‘lsa-da, bunday boshqaruvni amalga oshirish amaliyotda talabalarning fikrlash ehtiyojlari, ularning hissiy holati, boshqaruv ob’ekti bo‘lishga tayyorligi kabi qo‘shimcha harakatlar bilan bog‘liq”. Shu bilan birga, OTMlarda taqdim etilayotgan mavzularni talabaning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda qayta ishlash talab etiladi. Bularning barchasi o‘quv jarayoni didaktik prinsiplarga muvofiq qurilishi kerakligini anglatadi. Shu bois talaba oddiy mantiqiy xulosalardan jiddiy xulosalar tomon harakat qiladi. Talabalar faoliyatini boshqarish uchun bunday yondashuv o‘qituvchidan mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish uchun ko‘p vaqt talab qiladi, albatta, bunday ta’lim turini tanlash shaxsiy qiziqishga bog‘liq. Agar talabalar faoliyatini boshqarish o‘qituvchi ilmiy ishining tarkibiy qismi bo‘lsa, bu borada katta samaraga erishiladi. Talabaning kognitiv faoliyatini boshqarishning yana bir muhim jihati shundaki, talaba nafaqat muammolarni muvaffaqiyatli hal qiladi, balki o‘zi yangi va qiziqarli muammoli vazifalarni qo‘yishni o‘rganadi. Boshqaruv tadqiqot ishlarining yo‘nalishlaridan biri-bu o‘qituvchilarning auditoriyada kognitiv faoliyatni boshqarishdagi amaliy qiyinchiliklarini aniqlash va ularni yengish mexanizmlarini ishlab chiqish. Bu esa talabalarning kognitiv faoliyatini boshqarish usullarini aniqlashga imkon beradi. Ulardan ba’zilari:

talabalarni idrok etish bosqichida faollashtirish va o‘rganilayotgan materialga qiziqishning paydo bo‘lishi;

o‘quv materiallari tarkibiga qiziqarli ma’lumotlar, faktlar, tarixiy ma’lumotlarni kiritish;

amaliy qiymati bilan bog‘liq holda materiallarni o‘rganish ehtiyojiga munosabatni shakllantirish;

talabalar o‘z mulohazalarini isbotlash va asoslash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida qiyin va munozarali masalalarni muhokama qilish;

talabalar muammoli masalalarni ечишга асосланган хулосаларини шакллантиришлари керак.

XULOSA

Jahon tajribasidan ma’lumki, kognitiv faoliyatni boshqarishda mantiqiy masalalar, nostandart savollar, muammoli vaziyatlar hosil qiluvchi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirish maqsadida ushbu muammoli topshiriqlar va keyslar yordamida aqliy

faoliyatni rivojlantirish, kreativ va mantiqiy fikrlash, xotira mustahkamligini rivojlantirishga erishiladi.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, talabalarga Amaliy dasturlar paketi kursi mavzularini o'qitish jarayonida yuqoridagi topshiriqlardan foydalanish ularning o'zini o'zi boshqarish, tarbiyalash, kreativ fikrlashini rivojlantirish acocida ijodkorlik faoliyatiga jalb etish, tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatni takomillashtirish, yuqori saviyadagi yetuk mutaxassis bo'lib yetishi va kreativ faoliyani rivojlanishi e'tiborga olinadi.

Shunday qilib, talabalar unchalik murakkab bo'lmagan masalalarni yechish davomida matematikaning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lgan differensial o'yinlar sohasiga qadam qo'yadilar. Tavsiya qilingan adabiyotlar bilan tanishish esa bu soha masalalari, ularni yechish usullari bilan tanishish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Incongruity. Journal of Creative Behavior, 27, 57–70. http://dx.doi.org/10.1002/j. 2162-6057.1993.tb01387.

2. Kreativlikning o'rni. Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. – 296 b., 52-bet.

3. Muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2018. – B.49.

4. Texnologiya. – T.: O'zR OO'MTV TDTU qoshidagi Oliy injenerlik pedagogika instituti, 2010. – 224 b.

WORDLY KNOWLEDGE